

**UDK: 633.1**

## AVTOMOBILLAR HARAKATLANISHI NATIJASIDA ATROF-MUHITGA CHIQADIGAN ZARRALAR TAHLILI

**Karimova Kamola G‘ulomovna**

texnika fanlari falsafa doktori, PhD

Jizzax politexnika instituti

ORCID: 0000-0001-5035-0525,

Email: [kamola.karimova1987@gmail.com](mailto:kamola.karimova1987@gmail.com)

**Kamolova Shaxnoza Meliboyevna**

"Ekolgiya va Menehat muxofazasi" kafedrasi

Email: [shaxnoza7422@mail.ru](mailto:shaxnoza7422@mail.ru)

Ushbu maqolada avtomobillar harakatlanish natijasida tormoz ustquymalari va shinalar yeyilishidan chiqadigan zararli zarralarning miqdorini aniqlashda respublika va xorijiy tadqiqotlar natijalari g‘ildirakning yo‘l bilan ilashish koeffitsientiga bog‘liq tadqiqotlar tahlili keltirilgan. Maqolada keltirilgan hisob-kitoblar Jizzax viloyati misolida amalga oshirilgan. yo‘l chorrahalarida avtomobil tormoz ustquymalari va shinalar yeyilishi natijasida atrof-muhitga chiqadigan zarralar taqsimlanishining Igeo indeksi bo‘yicha aniqlash orqali ularni kamaytirish choralari ishlab chiqilgan. Avtomobil yo‘llari uchun g‘ildirakning yo‘l bilan ilashish koeffitsientini yaxshilash bo‘yicha yo‘l qoplamasи tarkibiga modifikator sifatida ishlatilib bo‘lingan shina rezina granulalaridan foydalilanilgan asfalt-beton qoplamali yo‘llarni o‘tkazuvchanligi yuqori bo‘lgan chorrahalarda qurish tavsiya etilgan.

**Kalit so‘zlar:** avtomobil, tormoz ustquymalari, shinalar, atrof-muhit, ilashish koeffitsienti, PM<sub>10</sub>, PM<sub>2,5</sub>.

В данной статье представлен анализ результатов республиканских и зарубежных исследований коэффициента контакта колес с дорогой при определении количества вредных частиц, выделяющихся из тормозных накладок и износа шин в результате движения автомобиля. Расчеты, представленные в статье, проведены на примере Джизакской области. разработаны меры по их снижению путем определения распределения частиц, выбрасываемых в окружающую среду в результате износа тормозных накладок и шин автомобилей на перекрестках дорог по индексу Igeo. Для автомобильных дорог рекомендуется строить дороги с асфальтобетонным покрытием с использованием в качестве модификатора дорожного покрытия гранул отработанной шинной резины с целью повышения коэффициента контакта колес с дорогой на перекрестках с повышенной проходимостью.

**Ключевые слова:** автомобиль, тормозные колодки, шины, окружающая среда, коэффициент загрязнения, PM<sub>10</sub>, PM<sub>2,5</sub>.

This article presents an analysis of the results of republican and foreign research on the coefficient of wheel contact with the road in determining the amount of harmful particles released from brake linings and tire wear as a result of car movement. The calculations presented in the article were carried out on the example of Jizzakh region. measures to reduce them have been developed by determining the distribution of particles released into the environment as a result of car brake linings and tire wear at road intersections according to the Igeo index. For highways, it is recommended to build asphalt-concrete paved roads using used tire rubber granules as a modifier in the road surface in order to improve the coefficient of wheel contact with the road at intersections with high permeability.

**Keywords:** automobile, brake pads, tires, environment, pollution coefficient, PM<sub>10</sub>, PM<sub>2.5</sub>.

## Kirish

Jahonda avtomobil transporti atmosfera havosini ifloslantiruvchi asosiy manba hisoblanadi. Avtomobillar harakatlanishi natijasida atrof-muhitgi chiqadigan qattiq zararli zarralarning bilan bog'liq eng muhim manbalari tormoz ustquymalari va shinalar yeyilishidan hosil bo'ladigan zarralar hisoblanadi. Avtomobillar harakatlanishi natijasida hosil bo'lgan zarralar atrof-muhitga tarqaladi. Avtomobillar harakatlanishi natijasida hosil bo'ladigan zarralarning 50-70% atmosfera havosi tarkibiga aylanadi. Avtomobillar harakatlanishi jarayonida g'ildirakdan dastlab kattaroq zarrachalar ( $PM_{10}$  mikrometrdan kam), undan keyin kichikroq havo zarralari ( $PM_{2,5}$  1 mikrometrdan kam) chiqariladi [1]. Hozirgi kunda avtomobillar harakatlanish natijasida hosil bo'ladigan zarralarning ekologiyaga ta'sirini kamaytirish dolzarb muammoga aylanib bormoqda.

Dunyoda avtomobillar harakatlanishi natijasida hosil bo'ladigan zarralarning ekologiyaga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha BMTning 49 va 83-sonli xalqaro qoidalari talablariga muvofiq, avtomobillar harakatlanishi natijasida hosil bo'ladigan chiqindi gazlar, zarralar miqdorini cheklash bo'yicha ko'rilgan qonunchilik choralariga qaramay so'nggi 50 yil ichida yirik shaharlardagi mavjud avtomobillar parki ekologiyaga salbiy ta'sir

ko'rsatmoqda. Jahonda so'nggi yillarda avtomobillarning harakatlanishi natijasida dvigateldan chiqadigan chiqindi gazlar tarkibini me'yoramloqda, ammo Yevropa standartlari tormoz ustquymalari va shinalar yeyilishi natijasida hosil bo'ladigan zarralarini o'z ichiga olmaydi. Biroq 2023-yilga kelib Yevro 7 standartlaridan boshlab tormoz ustquymalari va shinalar yeyilishi natijasida hosil bo'ladigan zarralarini atrof-muhitga zararli ta'sirini kamaytirish bo'yicha standartlarni ishlab chiqish rejalashtirilgan.

Respublikamizda atmosferaga jami zararli tashlamalarning 58 foizi (1,4 mln tonna) avtomobillar ulushiga to'g'ri keladi. 2024-yil yanvar oyida IQAir reytingida dunyoda Respublikamiz havoning iflosligi bo'yicha poytaxt havosi mana shu ifloslanish bo'yicha yirik dunyo shaharlari orasida 10 talikda turibdi. Poytaxt havosi tarkibida mayda  $PM_{2,5}$  dispers zarrachalari bilan bog'liq xavf yuqoriligidcha qolmoqda. 2024 yil yanvar oyidan buyon aynan mana shu mayda ko'zga ko'rinnmas zarracha poytaxt havosi tarkibida jahon stadartlarining ruxsat etilgan me'yordan (REM) ancha yuqori "qizil" xavfda saqlanmoqda. O'zgidrometga kuzatuvlariga ko'ra [2], poytaxtda havo tarkibidagi aynan  $PM_{2,5}$  mayda zarrachasi jahon standart me'yordan (REM) 23,8 marta yuqori ekanligi kuzatilgan.



**1-rasm. Xalqaro "Havo sifati indeksi" sayti bo'yicha mintaqada havoning ifloslanish darajasi.(11.01.2024) [3]**

Ma'lumot uchun  $PM_{2,5}$  mayda zarrachasi soch tolasidan 40 barobar

mayda ko'zga ko'rinnmas zarracha bo'lib, uning muntazam havo tarkibida yuqori

darajada qolishi inson salomatligi, o'pka to'qimalari orqali qonga o'tish xususiyatidan kelib chiqib paydo bo'ladigan kasalliklar, nafas yo'llari, allergiya, ko'z shilliq pardasi zararlanishi, teri kasalliklari, hatto saraton kasalligini ham chaqirishi mumkin. Bunga asosiy

sabab respublikamiz yirik shaharlarda avtomobil sonining ko'pligi hisoblanadi.

O'zbekiston shaharlarda 2024 yil 17-yanvar holatiga havo ifloslanishini avtomatik nazorat qiluvchi stansiyalardan olingan ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan [4].

### 1-jadval

#### O'zbekiston shaharlarda 2024 yil 17-yanvar holatiga havo ifloslanishini avtomatik nazorat qiluvchi stansiyalardan olingan atmosfera havosi sifati to'g'risida BYULLETEN

№	Shaharlар	Ifloslantiruvchi moddalar konsentratsiyasi ( $\text{mg}/\text{m}^3$ )						$\text{PM}_{10}$ ( $\text{mk}\text{g}/\text{m}^3$ )	$\text{PM}_{2,5}$ ( $\text{mkg}/\text{m}^3$ )
		Uglero d oksidi	Azot dioksidi	Azot oksidi	Oltin-gugurt dioksid	Ammia k	Ozon		
1	Toshkent	1,085	-	-	0,011	-	0,005	9,9	52,3
2	Guliston	0,43	-	0,005	0,021	0,005	-	-	-
3	Nukus	0,194	0,006	0,003	0,005	-	0,015	23,5	5,2
4	Urganch	0,355	0,002	0,002	0,004	0,003	0,016	7,5	3,8
5	Termiz	0,443	0,003	0,01	0,008	0,014	0,004	374, 7	80,7
6	Jizzax	0,4	0,012	0,003	0,01	0,001	0,004	92,4	54,9
<b>REM o.s.</b>		<b>4</b>	<b>0,06</b>	<b>0,25</b>	<b>0,2</b>	<b>0,12</b>	<b>0,1</b>	<b>300</b>	-

O'zgidromet 6 ta shaharga o'rnatilgan avtomat stasionar post ma'lumotlariga asoslanib, 17 yanvar holatiga respublikaning 6 ta shahar atmosfera havosi sifati to'g'risidagi byulletenni taqdim etdi. Poytaxt havosi tarkibida mayda  $\text{PM}_{2,5}$  dispers zarrachalar miqdori Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti tavsiyalaridan 23,8 barobarga ortgan (<https://t.me/uzgydromet/12061>). Termiz va Jizzax havosi tarkibida mayda  $\text{PM}_{2,5}$  dispers zarrachalar miqdori Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti tavsiyalaridan yuqori darajada ifloslangan. Atmosfera havosining avtomobil bilan bog'liq asosiy ifloslantiruvchilar quyidagilar hisoblanadi.

Statsionar kuzatuv punktlarida o'lchanadigan asosiy ifloslantiruvchilar: azot oksidi ( $\text{NO}$ ), azot dioksidi ( $\text{NO}_2$ ), oltin-gugurt dioksidi ( $\text{SO}_2$ ), uglerod oksidi ( $\text{SO}$ ), muallaq zarrachalar (chang), shuningdek ammiak ( $\text{NH}_3$ ) va ozon ( $\text{O}_3$ ).

Muallaq zarrachalar (chang) – atmosfera havosining keng tarqalgan ifloslantiruvchisi, muallaq holatdagi qattiq

va suyuq zarrachalar aralashmasidan iborat. Muallaq zarrachalar  $\text{PM}_{10}$  va  $\text{PM}_{2,5}$  mayda dispers zarrachalarni o'z ichiga oladi.

$\text{PM}_{10}$  va  $\text{PM}_{2,5}$  maydadispers zarrachalar – kattaligi 10  $\text{mkm}$  dan kichik -  $\text{PM}_{10}$  va 2,5  $\text{mkm}$  dan kichik -  $\text{PM}_{2,5}$  havoda muallaq turgan, qurilish, ishlab chiqarish (ayniqsa sement, sopol, g'isht va bosh.), yo'l qoplami eroziyasi hamda tormoz kolodkalari va shinalari yemirilishi, qattiq yog'ilg'i turlarini yoqishdan hosil bo'lgan qattiq mikrozarrachalardir.

Yirik shaharda  $\text{PM}_{2,5}$  havoda har doim bo'ladi va inson har qanday holatda ham u bilan nafas oladi. Agar kundan kunga inson organizmiga bu zarrachalar ko'p miqdorda tushib, chiqishga ulgurmasa, ular organizmda to'planadi.  $\text{PM}_{2,5}$  ning asosiy xavfi uning kontsentratsiyasi keskin o'zgarishida emas, balki bu zarrachalarning organizmga surunkali ta'sir etishidadir.  $\text{PM}_{2,5}$  bilan «zaharlanish» alomatlari yaqqol namoyon bo'lmaydi. Bir kunda shaharda yashovchi

o‘rtacha statistik odam 200 milliard PM<sub>2,5</sub> zarralarini yutadi. Ularning yarmi o‘pkada o‘tirib qoladi. Bir martalik bunday doza jiddiy oqibatlarga olib kelmaydi. Biroq vaqt o‘tishi bilan organizmdagi PM<sub>2,5</sub> miqdori kritik darajadan oshadi va bu respirator va yurak-qon tomir kasalliklarining o‘sishi, masalan ziqnafasda holatning yomonlashishi, nafas yo‘llari kasalliklari, yurak-qon tomir, respirator hamda saraton kasalliklari oqibatida o‘limning ortishiga olib keladi [4].

**Avtomobillar harakatlanish natijasida** to‘g‘ridan-to‘g‘ri atrof-muhitga chiqadigan zarralar tormoz ustquymalari, shinalar va yo‘l sirtining eskirishi natijasida hosil bo‘lgan zarralar yo‘l changining asosiy manbalari hisoblanadi.

Avtomobil dvigatelidan chiqadigan zararli moddalar chiqindilarini filtrlash texnologiyalari takomillashtirilgani tufayli zaharli va zararli gazlar miqdori doimiy ravishda kamayib bormoqda. Ammo qattiq zarralar ulushi avtomobillar sonini o‘sishi tufayli ortib bormoqda. Yevropa atrof-muhit agentligining (EEA) so‘nggi ma’lumotlariga ko‘ra, avtomobil transporti harakatlanishi natijasida hosil bo‘ladigan zarralar avtomobil shinalarini va tormoz kolodkalari yeyilishi natijasida atrof-muhitni ifloslantirishga qo‘shgan hissasi 26,7-33,9% ni tashkil etadi [10].

**Avtomobillar tormozlanish jarayonida** chiqadigan og‘ir metallar odamlar va atrof-muhit uchun jiddiy tahdid, chunki ular ekotizimlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa havo, suv va tuproqning ifloslanishiga olib keladi.

**Avtomobillar tormozlanish jarayonida** hosil bo‘ladigan zarralar chorrahalar joylashgan qismining iqlimi, transport oqimi va meteorologik ko‘rsatkichlariga bog‘liq. Zarralarning bir qismi kelib chiqishi antropogen va biogen bo‘lishi mumkin.

M.Gianini tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishida yo‘l changlari, asosan, tuproqdan olingan minerallardan (60%) iborat ekanligini ko‘rsatdi. Tuproqdan olingan mineralarning 40-50% kvarts, qolgan miqdori albit, mikroklin,

xlorit va muskovit kabi loy hosil qiluvchi minerallar tashkil etgan. O‘simliklarning organik moddalari yo‘l changining taxminan 2 foizini, qolgan qismini esa tormoz ustquymalari va shinalar yeyilishi natijasida hosil bo‘lgan zarralar, yonish chiqindilari va asfaltdan uchuvchi kollar tashkil qilgan [11].

Yo‘l qoplamasи yuzasiga yotiқ chiziqlarning chizilishida qo‘llaniladigan oq, sariq va qizil bo‘yoqlar va panjaralarda ishlatiladigan kulrang bo‘yoq va korroziyaga qarshi qoplamalar ishqalanishi tufayli qo‘sishma ifloslanishga olib kelishi mumkin. O‘sib borayotgan avtomobil sanoati va yanada cheklangan ekologik talablar materialshunoslik rivojlanishidagi jadal taraqqiyotni qo‘llab-quvvatladı. Har yili avtomobilsozlik bozoriga ko‘plab yangi materiallar kiritiladi.

Yangi avtomobil shinasingning o‘rtacha massasi taxminan 8 kg ni tashkil qiladi va uning ishslash muddati davomida u 1,5 kg gacha yo‘qotadi. Bu shuni anglatadiki, 3 yil ichida kauchukning 10-20% ishqalanish tufayli atrof-muhitga, atmosfera havosi tarkibiga aylanadi. Yeyilishidan hosil bo‘lgan zarralar asosan tezlashish, tormozlash va burilish paytida sodir bo‘ladi. Asfalt yo‘l changida nikil va ruh elementining muhim manbalari hisoblanadi. J.Gadd va P.Kennedi yo‘l bitumidagi Ni va Zn kontsentratsiyasi xom bitumga qaraganda yuqori ekanligini aniqladilar [12]. Asfalt va beton qoplamali avtomobil yo‘llari bir-biri bilan solishtirilganda, beton qoplamali avtomobil yo‘llarida shinalar ishqalanishi natijasida yeyilish ko‘p sodir bo‘ladi.

Beton yuzalarda haydash ham ko‘proq energiya sarfini talab qiladi, bu esa ko‘proq yoqilg‘i sarfini keltirib chiqaradi. Asfalt qoplamali yo‘llarda haydashda uglevodorodlarning yuqori kontsentratsiyasi va og‘ir metallarning past konsentratsiyasi qayd etilgan. Yo‘l changidagi og‘ir metallarning kontsentratsiyasi avtomobil tezligiga bog‘liq. Yuqori tezliklar, shuningdek, shinalarining ko‘proq yeyilishi va yoqilg‘ining yonishini oshiradi. O‘rtacha

tezligi soatiga 80 dan 90 km gacha bo‘lgan yo‘llardagi changni o‘rtacha tezligi 70 dan 80 km/soatgacha bo‘lgan yo‘llar bilan solishtirdi. Ular og‘ir metallarning yuqori konsentratsiyasi yuqori o‘rtacha haydash tezligiga ega bo‘lgan yo‘llardagi changda paydo bo‘lishini aniqladilar. L.Duong ma’lumotlariga ko‘ra, yo‘l changidagi og‘ir metallarning kontsentratsiyasi aylanmalar, avtomobil yo‘llari va svetoforlar kabi transport va yo‘l xususiyatlari qarab sezilarli darajada farq qiladi [2].

### **Material va metodlar**

Avtomobillar harakatlanishi natijasida hosil bo‘ladigan zarralar miqdorini o‘rganish sohasi bilan bog‘liq muammolardan biri bu zarralarni qat’iy tasniflari mavjud emasligi hisoblanadi, ammo umumiyligi foydalanish uchun ta’riflar mavjud. Zarralar atmosfera havosi

tarkibiga aylanadigan qattiq yoki suyuq zarralar sifatida ta’riflangan.

Avtomobillar harakatlanishi natijasida hosil bo‘ladigan yo‘l changiga bir oz boshqacha ta’rif K.Kampa va K.Kastanas tomonidan berilgan, zarralar quyidagi toifalarga bo‘linadi:

- mayda zarralar va yirik zarralar: diametri 1 mkm dan kichik zarralar;
- o‘ta mayda zarralar: diametri 0,1 mkm dan kichik bo‘lgan zarralar [4].

Eng keng tarqalgan ta’rif Qo‘shma Shtatlar atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi (2016) [5] va Yevropa komissiyasi (2016) [6] ma’lumotlariga ko‘ra, quyidagi ta’riflar qo‘llaniladi:

- dag‘al zarralar;
- mayda zarralar.

Shulardan kelib chiqqan holda yo‘l changi uchun quyidagi ta’riflarni ishlab chiqdik (2-jadval)

### **2-jadval**

#### **Avtomobillar harakatlanishi natijasida hosil bo‘ladigan yo‘l changiga nisbatan turli xil ta’riflar**


Atamalar	Ta’riflar
Chang , yo‘l changi	Yo‘l yuzasidan to‘planib qoladigan kichik o‘lchamdagisi zarralar
Chang miqdori	Muayyan sirtda mavjud bo‘lgan changning umumiyligi miqdori
Changni tozalash	Changni ushlab qolish , qayta tiklashga olib keladigan jarayon
Chang zararli zarralari	Chang to‘plangan yo‘l yuzasidagi havoga chang oqimi
Changlanish darajasi	Mavjud bo‘lgan chang miqdori tozalash

**Avtomobil harakatlanishi natijasida hosil bo‘ladigan zarralarni tashish jarayonlari.** Havoda zarralarni tashish turli jihatlarga bog‘liq. Jumladan: zarralar xususiyatlari, aerozolning gaz xususiyatlari ham (bu holda havo) bog‘liq. Ammo zarralar nafaqat havoda, balki boshqa muhitlarda ham tashiladi. Avtomobillar harakatlanishi natijasida shinalar va tormoz ustquymalarining yeyilishi natijasida hosil bo‘ladigan zarralar geografik joylashuvga qarab farq qilishi mumkin.

Bu shahar muhitida mavjud bo‘lgan mintaqaviy muhitni tashkil qiladi. Ya’na bir jihat – masalan, shamol ta’sirida zarralarni uzoq vaqt tashish mumkin.

Boshqa mamlakatlardagi og‘ir sanoat majmuasidan shamol ta’sirida

boshqa davlatlar hududiga o‘tish holatlari mavjud. Shaharlardagi asosan transportdan chiqadigan chiqindilardan, ham chiqindi gazidan, balki tormoz, shinalar va yo‘l qoplamarining yeyilishi natijasida chiqadigan zarralardan iborat. Dioganal (Chiziqli) shinalar ishlatalidigan mamlakatlarda, ayniqsa, yo‘l qoplamasining zarralar paydo bo‘lishi yuqori ko‘rsatkichga ega. Bularning barchasi birlamchi zararli moddalar, ya’ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri atmosfera havoga chiqariladigan qattiq zararli moddalar hisoblanadi. Bu zarralarga atrofdagi bir qancha jarayonlar ta’sir qiladi. 2-rasmida zarralar va yo‘l changlarini tashishga ta’sir qiluvchi murakkab jarayonlar va ularning o‘zaro ta’siri soddalashtirilgan tasviri tasvirlangan.

**2-rasm. Shahar muhitida mavjud bo'lgan transport jarayonlarining tasviri.**

- shamol bilan bog'liq transport jarayonlari
- issiqlik radiatsiyasi tufayli transport jarayonlari tasvirlangan.
- yog'ingarchilik (yomg'ir va qor) bilan bog'liq bo'lgan zarralarni tashish tasvirlangan

[7].

Ob-havo sharoiti avtomobillar harakatlanishi natijasida hosil bo'ladigan zarralarga katta ta'sir ko'rsatadigan jihatlardan biridir. Shamol zarralarni uzoqlashtirishi, ularni mahalliy darajada aralashtirishi yoki shamol yo'nalishi, kuchi va hududning geometrik xususiyatlariga qarab zarralarni bir joydan boshqa joyga ko'chirishi mumkin. Shahar o'simliklari avtomobillar harakatlanishi natijasida hosil bo'ladigan zarralarning cho'kishi va tarqalishiga ta'sir qiladi. Quruq sharoitda zarralarning quruq cho'kishi turli sirtlarda sodir bo'ladi (masalan, yo'l, bino va o'simlik yuzalari va boshqalar).

Yog'ingarchilik paytida yomg'ir yoki qor zarralari yomg'ir tomchilari yoki qor parchalari ustiga yotqizilgan zarralar tufayli tuproqga singiydi. Tuproq, nam yoki ho'l zarralarni biriktiradi.

**Zarralar hosil bo'lishining g'ildirakning yo'l bilan ilashish koeffitsientiga bog'liqligi.** Butun dunyoda avtotransport vositalarining ekologik

xavfsizligini ta'minlash muammosiga katta e'tibor qaratilmoqda. Shinalar sifatini tavsiylovchi asosiy ko'rsatkich ularning yo'l yuzasiga ilashishi hisoblanadi. Avtomobil g'ildiragining yo'l bilan ilashish koeffitsientlarining bunday yuqori qiymatlari zamonaviy avtomobilga tormozlash qobiliyatini to'liq amalgalashirishga imkonni beradi. Shinalar va tormoz kolodkalari yeyilishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Avtomobil shinalari ilashish koeffitsienti 0,7 dan yuqori bo'lishi ekologik xavfsizligining oshishiga olib keladi. Shunday qilib, quruq va toza yo'l sirtlarida zamonaviy shinalar ilashish koeffitsientlarining yuqori qiymatlarini ta'minlaydi va ularning yanada oshishi avtomobil transporti vositalarining xavfsizligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nam qoplamali avtomobil yo'llarida shinalarni ilashish koeffitsientlari 0,1 dan 0,75 gacha o'zgaradi [6]. Ushbu koeffitsientlar ko'p

jihatdan shinalarning konstruktiv va ekspluatatsion parametrlariga bog'liq - protektor naqshlari, yugurish yo'lining egriligi, protektorning rezina tarkibi, shinalar havosi bosimi, vertikal yuk, protektorning yeyilishi va boshqalar.

Shunga asoslanib, shinalar ishlab chiqaruvchilari yengil avtomobillar uchun shinalarning ilashish sifatini yaxshilashga alohida e'tibor berishadi. Avtomobil g'ildiragining yo'l yuzasi bilan ishonchli aloqasini ta'minlashda shinaning rolini aniqlash, uning yeyilish jadalligiga ilashish koeffitsientiga ta'sirini ko'rib chiqish va tahlil qilish kerak.

Avtomobillar harakatlanish natijasida tormoz ustquymalari va shinalar yeyilishidan chiqadigan zararli zarralarning miqdorini aniqlashda respublika va xorijiy tadqiqtolar natijalari g'ildirakning yo'l bilan ilashish koeffitsientiga bog'liq tadqiqtolar mavjud emasligi aniqlandi. Hisob-kitoblarni amalga oshirishda ma'lum bir hududdagi transport vositalarining sonini hisobga

olish kerak. Bizning tadqiqtomizda hisob-kitoblari Jizzax viloyati misolida amalga oshirilgan.

Avtomobillarni ishlatish jarayonida shinalar va tormoz ustquymalari yeyilishi natijasida atrof-muhitga chiqadigan zararli zarralarning ( $U_z$ ) umumiy miqdori 1-formuladan foydalangan holda hisoblab aniqlanadi [5]

$$U_z = (Z_{sh} + Z_t) \quad (1)$$

bunda:  $Z_{sh}$  - shinalar protektorining yeyilishi natijasida ajralib chiqadigan zararli zarralar miqdori;

$Z_t$  - tormoz ustquymalari yeyilishi natijasida chiqariladigan zararli zarralar miqdori.

Avtotransport vositalarining tormoz ustquymalari va shinalar yeyilishidan hosil bo'lgan zarralar miqdorini g'ildirakning yo'l bilan ilashish koeffitsientini o'zgarishini hisobiga olgan holda hisoblash natijalari 3-jadval keltirilgan.

### 3-jadval Avtotransport vositalarining shinalari va tormoz ustquymalari yeyilishidan hosil bo'ladigan zarralar miqdori

Ilashish koeffitsienti	Yengil avtomobillardan, g/km			Yuk avtobuslardan, g/km		
	Shinalaridan	Tormoz ustquymalari dan	Jami	Shinalaridan	Tormoz ustquymalari dan	Jami
0,2-0,3	0,085	0,042	0,13	0,93	0,47	1,4
0,3-0,4	0,086	0,020	0,11	0,096	0,41	1,377
0,5-0,6	0,087	0,018	0,10	0,993	0,35	1,343
0,7-0,8	0,09	0,012	0,10	1,035	0,243	1,278

Avtomobillar sonining o'sishi tormoz ustquymalari va shinalar yeyilishidan hosil bo'ladigan zarralar miqdorining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi kunda ushbu miqdor yillar kesimida doimiy va sezilarli o'sib borishi kuzatilmoqda.

Analitik usulda olingan natjalarni aniqlash uslublarini amaliyatga joriy etish uchun ma'lum bir hudud tanlab olish, Respublikamizning ma'lum bir qismidagi avtomobillarning sonini hisobga olish kerak. Bizning tadqiqtomiz tadbig'i Jizzax

viloyati misolida amalga oshirildi, buning uchun tormoz ustquymalari va shinalar yeyilishidan hosil bo'lgan zarralar miqdorini bitta avtomobil misolida aniqlab, so'ng viloyatda ro'yhatga olingan jami avtomobillar soniga ko'paytiriladi.

Jizzax viloyati hududida oxirgi o'n yillikda butun avtomobil parkida sezilarli o'sish kuzatildi. O'sish ko'rsatkichlari Jizzax viloyati IIBYHHB boshqarmasi ma'lumotlariga asosan viloyatidagi ro'yhatga olingan avtomobillarning umumiy soni avtotransport vositalarining

toifalari bo'yicha tahlil qilindi. Jizzax viloyatida ro'yxatga olingan yengil

avtomobillar soni 4-jadvalda keltirilgan.

#### 4-jadval


##### Jizzax viloyatida ro'yxatga olingan yengil avtomobillar soni

Avtomobillar	2015 yil, Ming dona	2022 yil, Ming dona
Yengil avtomobillar	70078	150047
Yuk avtomobilari	15211	55672
Avtobuslar	178	436

Tahlil quyidagilarni ko'rsatdiki, 2015-yilda Jizzax viloyatida jami 85467 ta avtomobillar ro'yhatga olingan. Jizzax viloyatida avtomobil shinalari va tormoz ustquymalarining yeyilish miqdori ilashish koeffitsienti 0,2-0,3 bo'lganida 1127 tonna, ilashish koeffitsienti 0,3-0,4 bo'lganida 1077 tonna, ilashish koeffitsienti 0,5-0,6 bo'lganida 1041 tonna, ilashish koeffitsienti 0,7-0,8 bo'lganida 994 tonnani tashkil etganligi aniqlandi. Jizzax viloyatida 2015-yilda ro'yxatga olingan avtomobilarni shinalari

va tormoz ustquymalarining yeyilishi g'ildirakning yo'l bilan ilashish koeffitsienti 0,7-0,8 bo'lganda zarralar miqdori ilashish koeffitsienti 0,2-0,3 ga nisbatan 12 % ga kamayishiga olib kelishi aniqlandi.

Avtomobilarni shinalari va tormoz ustquymalarining yeyilishi natijasida hosil bo'lgan zarralar miqdorini g'ildirakning yo'l bilan ilashish koeffitsientiga bog'liq holatda o'zgarish grafigi va formulasi 3-rasmida keltirilgan.




**3-rasm. Jizzax viloyatida 2015-yilda ro'yxatga olingan avtomobilarni tormozlanishi jarayonida hosil bo'lgan zarralar miqdorini g'ildirakning yo'l bilan ilashish koeffitsientiga bog'liq holatda o'zgarish grafigi**

Tahlil quyidagilarni ko'rsatdiki, 2022 yilda ilashish koeffitsienti 0,2-0,3 bo'lganida 3810,5 tonna, ilashish koeffitsienti 0,3-0,4 bo'lganida 3671,8 tonna, ilashish koeffitsienti 0,5-0,6 bo'lganida 3566,2 tonna, ilashish koeffitsienti 0,7-0,8 bo'lganida 3397 tonnani tashkil etganligi aniqlandi. Jizzax

viloyatida 2022-yilda ro'yxatga olingan avtomobilarni shinalari va tormoz ustquymalarining yeyilishi natijasida hosil bo'ladigan zarralar miqdorini g'ildirakning yo'l bilan ilashish koeffitsienti 0,7-0,8 bo'lganda zarralar miqdori 0,2-0,3 ga nisbatan 11 % ga kam hosil bo'lishi aniqlandi.

Avtomobilarni shinalari va tormoz ustquymalarining yeyilishi natijasida hosil bo‘lgan zarralar miqdorini g‘ildirakning

yo‘l bilan ilashish koeffitsientiga bog‘liq holatda o‘zgarish grafigi 4-rasmida keltirilgan.



**4-rasm. Jizzax viloyatida 2022-yilda ro‘yxatga olingan avtomobilarni tormozlanishi jarayonida hosil bo‘lgan zarralar miqdorini g‘ildirakning yo‘l bilan ilashish koeffitsientiga bog‘liq holatda o‘zgarish grafigi**

Tahlillar asosida Jizzax viloyatida avtomobillar sonining ortishi hisobiga chiqadigan zararli zarralar miqdorining o‘sishi aniqlandi.

Avtomobillar harakatlanishi natijasida hosil bo‘ladigan zarralar miqdori ilashish koeffitsienti 0,2-0,3 bo‘lganida 2015-yilga nisbatan 2022-yilda o‘rtacha 3,4 barobarga oshgan. Avtomobil shinalari va tormoz ustquymalari yeyilishi natijasida hosil bo‘ladigan zarralar miqdori ilashish koeffitsienti 0,7-0,8 bo‘lganida 2015-yilga nisbatan 2022-yilda o‘rtacha 3,3 barobarga oshganligi aniqlandi.

### Xulosha

Olib borilgan tadqiqotning tahlilariga ko‘ra, yo‘l qoplamasini tarkibiga tartarkibiga modifikator sifatida ishlatalgan shina rezina granulalaridan foydalilanigan asfalt-beton qoplamali yo‘llarni ilashish koeffitsientini oshishi hisobiga shina va tormoz ustquymalari yeyilishidan hosil bo‘ladigan zararli moddalar va zarralarning kamayishiga olib kelishi aniqlandi.

O‘tkazilgan nazariy va eksprement tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqib avtotransport vositalarining tormoz

ustquymalari va shinalari yeyilishidan chiqadigan zarralarning miqdorini aniqlash va kamaytirish choralarini ishlab chiqish maqsadida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- respublikamizning yirik shaharlarida o‘tuvchanligi yuqori bo‘lgan chorrahalarni avtomobillar harakatlanishi natijasida tormoz ustquymalari va shinalar yeyilishidan hosil bo‘ladigan zarralar bilan ifloslanish darajasi Igeo indeksini asosida baholashni keng yo‘lga qo‘yish zarur;

- zararliligi yuqori bo‘lgan chorrahalar yo‘l qoplamasini ilashish koeffitsientini yaxshilash uchun 100 metr masofasini tarkibiga modifikator sifatida ishlatalgan avtomobil shina rezinalarining granulasi qo‘shib tayyorlangan asfalt-beton qoplamasini bilan qoplash maqsadga muvofiqliр.

### Adabiyotlar

- [https://www.the-kingfisher.org/people/human\\_health/car\\_brakes.html](https://www.the-kingfisher.org/people/human_health/car_brakes.html)
- <https://t.me/uzgyydromet/11935>

3. <https://www.iqair.com/ru/air-quality-map/uzbekistan/toshkent-shahri/tashkent>
4. <https://monitoring.meteo.uz/uz/menu/ekologicheskij-bjulleten>
5. Васильев Андрей Владимирович. Повышение качества оценки комплексной экологической безопасности автотранспортных средств// Диссертация на соискание учёной степени кандидата технических наук. Москва 2019 г.
6. <https://yuz.uz/ru/news/v-uzbekistane-za-11-mesyatsev-proizvedeno-bolee-odnoy-tsyachi-avtobusov?view=kak-za-god-v-uzbekistane-izmenilas-situatsiya-na-vtorichnom-avtornke-tsen-iznos-i-probeg>
7. <https://www.ocenchik.ru/docs/2778-srednegodovye-probegi-raschet-probege.html>
8. Ismayilov K., Alimova Z., Asqarov I., Karimova K. "The Research On Road Dust And Particles Caused By Traffic (on the example Jizzakh city)" Problems in the textile and light industry in the context of integration of science and industry and ways to solve them": (PTLICISIWS-2022)
9. Salomons W, Fo'rstner U (1984) Metals in the hydrocycle. Springer, BerlinHeidelberg New York  
<https://link.springer.com/article/10.1007/BF00492273>
10. NAEI (2012). Road transport emission factors from 2010 NAEI. [http://naei.defra.gov.uk/datawarehouse/3\\_9\\_323\\_136259\\_roadtransportefs\\_naei10\\_v2.xls](http://naei.defra.gov.uk/datawarehouse/3_9_323_136259_roadtransportefs_naei10_v2.xls)
11. GIANINI, M. F. D., FISCHER, A., GEHRIG, R., ULRICH, A., WICHSER, A., PIOT, C., BESOMBES, J. L. & HUEGLIN, C. 2012. Comparative source apportionment of PM10 in Switzerland for 2008/2009 and 1998/1999 by Positive Matrix Factorisation. *Atmospheric Environment*, 54, 149-158
12. Gadd, J. and Kennedy, P. (2000). Preliminary examination of organic compounds present in tyres, brake pads and road bitumen in New Zealand: Prepared for the Ministry of Transport by Kingett Mitchell Limited
13. Osterle, W., Griepentrog, M., Gross, T. and Urban, I. (2001). Chemical and microstructural changes induced by friction and wear of brakes. Wear 251: 1469-1476